

ROSSIYA FEDERATSIYASINING AFG'ONISTONDAGI GEOSIYOSIY MAQSADLARI

Xolbayev G'anisher Kadirovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi Davlat va harbiy
boshqaruv kursi tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg'onistonga Rossiyaning geosiyosiy xamda iqtisodiy qiziqishi, uning manfaatlari va bu yo'lda Rossiya tomonidan olib borilayotgan xarakterlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Rossiya manfaatlari, do'stona hamkorlik, yirik davlatlar, iqtisodiy manfaatlar, xom-ashyo, mineral boyliklar, tabiiy boyliklar.

Bugungi kunda **Rossiya** tashqi siyosati global va mintaqaviy jarayonlar hamda munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ushbu davlat **Markaziy Osiyo** mamlakatlari, xususan, Afg'oniston bilan **tarixiy, siyosiy, madaniy** va **iqtisodiy** jihatdan hamkorlik olib bormoqda.

Afg'onistonning tabiiy zahiralari, tranzit imkoniyatlari, **Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi** va **Fors ko'rfazining** eng yirik **uglevodorod manbalariga** yaqinligi uning jahon iqtisodiy va harbiy-siyosiy ahamiyatini oshirgan.

Bunday sharoitda, Rossiya Federatsiyasining **ustuvor** maqsadi – **“qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini shakllantirish**, mavjudlarini rivojlantirish va Rossiya Federatsiyasiga tutash hududlarda yangi **keskinlik** hamda **mojarolar** paydo bo'lishini oldini olish”dan iborat.

Shuningdek, Afg'onistondagi siyosiy jarayonlarning dinamikasi, Rossiyaning ushbu mamlakatdagi siyosiy manfaatlari, ularning tuzilishi, belgilovchi omillari, ichki va tashqi siyosatini o'rganishga qaratilgan.

Ushbu mintaqada turli siyosiy o'yinchilarning raqobati kuchayganligi, yangi **chaqiriq** va **tahdidlarning** paydo bo'lishi, mamlakatning o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Tahlilchilarning fikriga ko'ra, Rossiyaning Afg'oniston borasida **ikkita** manfaati bor: **geosiyosiy** va **geoiqtisodiy**.

Geosiyosiy manfaat. Hozirda Moskva “Tolibon” hokimiyatda qolishi va ularning to'liq boshqaruvidan manfaatdor emas.

Ular o'z bayonotlarida **inklyuziv** hukumat tuzish haqida gapirib kelmoqda. Shu bois, Afg'onistondan AQSh chiqib ketgach, yuzaga kelgan bo'shliqni Rossiya to'ldirishga harakat qilmoqda.

Rossiyaning Afg'onistondagi **geosiyosiy** manfaatlari quyidagilarni tashkil etadi:

- Afg'oniston hamda Markaziy Osiyo hududida AQSh harbiy-siyosiy ishtirokining kuchayishi va geosiyosiy raqobat muhitida **AQShning ustunlik qilishga intilishi**;

- mamlakat hududida diniy **fanatizm** va **fundamentalizm**, shuningdek, **diniy ekstremizm** va **terrorizmning** avj olishi hamda ushbu illatlarning Markaziy Osiyo mintaqasi, qolaversa, Rossiyaning janubiy hududlari xavfsizligi va barqarorligiga xavf solishi, xususan, Rossiyaning Shimoliy Kavkaz mintaqasidagi **Checheniston** va **Dog'istonda** faoliyat olib borgan ekstremistik kayfiyatdagi terrorchilarning Afg'oniston bilan bevosita aloqada bo'lganligi;

- **giyohvand moddalar savdosining** Afg'oniston hududidan Rossiya yo'nalishiga eng qulay va arzon koridor sifatida ko'rilishi;

- Afg'oniston hududining istiqbolda **Rossiya** tabiiy gaz va neft mahsulotlarini, shu bilan birga, **harbiy qurol-aslaha anjomlarini yetkazib berish uchun katta bozorga** aylanishiga qaratilgan.

Geoiqtisodiy manfaat. Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo hududiga chiqishi, ya'ni, transafg'on temiryo'li.

Agar vaziyat shu ko'rinishda davom etsa, **Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiyaga iqtisodiy bog'liqligi kamayadi.** O'z navbatida bu holat Moskvani tashvishlantiradi.

Bundan tashqari, Rossiya tomoni **TAPH** (*Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston*) gaz quvuri loyihasiga qiziqishi mavjudligini ma'lum qilgan.

Garchi Rossiya loyihada rasman ishtirok etmayotgan bo'lsa ham, bundan ma'lum foyda olishga umid qilmoqda. Ya'ni, TAPH gaz quvuri qurilsa, Rossiya gazi Hindiston va Pokistonga hozirgidek dengiz orqali emas, balki quvur tizimi orqali olib chiqilishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi **Janubiy Osiyo** davlatlarini gazlashtirishdan nafaqat Rossiya xomashyosi uchun **yangi bozorlarni ochishi**, balki Pokiston va Hindistonning **Rossiyaning Yaqin Sharqdagi raqobatchilarini** Yevropadan chalg'itishdan ham manfaatdor.

O'z navbatida, Rossiya kompaniyalari quvurning Turkmaniston qismi uchun quvurlar yetkazib berish bilan birga, Pokistonda **TAPH** bilan bog'lanishni rejalashtirgan.

Ikkinchi maqsad esa **Afg'onistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralarida turli terrorchilik tashkilotlari a'zolarining to'planishiga yo'l qo'ymaslik** hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, toliblar hokimiyat tepasiga kelganidan beri (*2021 yil avgust*) hech bir davlat, jumladan, **Rossiya** "Tolibon" rejimini Afg'onistonning qonuniy hukumati sifatida rasman tan olmagan.

Biroq, "Tolibon" harakati vakillari bir necha marotaba Rossiya vakillari

bilan uchrashgan. Bundan tashqari, Rossiyaning **Kobuldagi** elchixonasi o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Shu bilan birga, 2022 yil mart oyida Rossiya "Tolibon" hukumati tomonidan Moskvaga yuborilgan **birinchi afg'on diplomatiga** akkreditatsiya bergan. Shu yo'llar orqali o'zaro munosabatlar yaxshilanmoqda.

Doha kelishuvidan keyin Rossiya "Tolibon" hukumatini Afg'onistonning "**de-fakto hukumati**" deb hisoblaydi.

Rossiya "Tolibon" rahbariyatini tan olmasada, unga nisbatan xalqaro bosimni kamaytirishga harakat qilmoqda.

O'z navbatida, Rossiya "Tolibon"ning **hukumatni inklyuziv qilmoqchiligi**, hech qanday yomon niyatlari yo'qligi va ular uchun muammo yaratmasliklari haqidagi bayonotlarini qo'llab-quvvatlagan.

Bundan tashqari, Afg'onistondagi **giyohvand moddalar** bilan bog'liq vaziyat ham Rossiyaning xavotirlariga sabab bo'lmoqda.

"Tolibon" vakillari bilan munosabatlar yaxshilanganiga qaramay, Rossiya **xavfsizlik muammolarini hal qilish uchun** Markaziy Osiyo respublikalaridagi **harbiy ishtirokini** oshirmoqda va vaqti-vaqti bilan Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy mashg'ulotlar tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, **mehnat muhojirlari bilan bog'liq muammolar** ham Rossiya uchun tahdid hisoblanadi.

Chunki, Markaziy Osiyo davlatlari, birinchi navbatda, Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan Tojikiston va O'zbekiston muhim migratsiya oqimlarini Rossiya bilan bog'laydi.

Afg'onistondagi beqarorlik, mamlakat shimolidagi turli terrorchilik tashkilotlarining faoliyati, ularning **Markaziy osiyolik mehnat muhojirlari kabi Rossiyaga yollanishi ehtimoli** va **radikallashuvi** Rossiya Federatsiyasida xavfsizlik bilan bog'liq vaziyatning jiddiy yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yaqin kelajakda Rossiyaning Afg'oniston masalasidagi faolligi ortib borishi mumkin.

Shuningdek, tashqi qudratli davlatlarning tarqoq yoki turfa loyihalarining markazida afg'on xalqi, aholisining tinchligi va farovonligi emas, eng avvalo ushbu davlatda ko'proq o'zlarining geosiyosiy raqiblarini zaiflashtirish, o'zlarining xususiy manfaatlarini shakllantirish ehtimoli ortadi.

Afg'onistondagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar yaqin kelajakda o'z yechimini topa olmasa mamlakat hududida yangi qurolli mojarolarning avj olishiga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рашидов Р.Р. Афғонистонда давлатчилик масаласи: тарих ва хозирги замон. Монография.-Т.."Наврўз" нашриёти.2017.-264 б.
2. Парвиз А. Глобальные и региональные аспекты модернизации экономики Афганистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2009.-22с.
3. Бобокулов И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы // Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2 – 2013.- 75с.
4. Россия намерен расширить своё участие в стабилизации ситуации в Афганистане [Электронный ресурс] // <http://afghanistan.ru/doc/82306.html>. -Дата обращения: 24.02.2024.
5. Сабир Фахим. Афганистан в ожидании строительства новой железной дороги. [Электронный ресурс] <http://afghanistan.ru/doc/93918.html>. - Дата обращения: 24.02.2024.

